



“OTA” ROMANIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING IFODASI

Bahriddinova Dilnoza Otabek qizi

Navoiy Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15167246>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ulugʻbek Hamdamning “Ota” romanidagi oʻzbek xalqining mentalitetiga xos boʻlgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, oʻzbek otasining qanday ota boʻlishi bilan bogʻliq holatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar. Oila, qadriyat, milliy mentalitet, mehmondoʻstlik, ismlar.

Biz bilamizki, oʻzbek xalqida qadriyat tushunchasi ajdodlardan meros qolgan va jamiyatning maʼnaviy-axloqiy asosini tashkil qiluvchi tamoyillar toʻplami hisoblanib, juda muhim ahamiyatga egadir. Qadriyatlar xalqning tarixi, urf-odatlar, anʼanalari, diniy eʼtiqodi va kundalik hayot tarzida namoyon boʻladi. Oila, nikoh masalalari, mehmondoʻstlik, hurmat va ehtirom, mehnatsevarlik, anʼana va urf-odatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik - bularning hammasi oʻzbek qadriyatlarining muhim jihatlaridan sanaladi.

Oila - bu oʻzbek jamiyatida eng muhim institutlardan biridir. Oila - jamiyatning bir boʻgʻini hisoblanadi. Bir nechta oilalar birlashib, jamiyatni tashkil qiladi. Bu qadriyatga asosan xalqimizda yoshi katta boʻlgan bobo-buvilarimizdan ota-onalarining rizoligi bilan oila qurayotgan ikki yoshga pand-nasihatlar beriladi, bilmaganlari bildirilib, oʻrgatiladi.

Oʻzbek xalqi oʻzining mehmondoʻstligi boshqa baʼzi xalqlardan ajralib turadi. Kelgan mehmonni xursandchilik bilan kutib olish, dasturxon bezash, unga iliqlik munosabatda boʻlish - qadimiy anʼalarimizdan biridir. Hatto, Mirtemir “Qishlogʻim” sheʼrida mabodo mehmon kelganda dasturxonga qoʻyish uchun noz-u neʼmating boʻlmasa, sariyogʻday yoqadigan yaxshi soʻz bilan koʻnglini oling, deyilgan. Toʻgʻri, “Yaxshi soʻz bilan ilon inidan chiqar, yomon soʻz bilan pichoq qinidan chiqar” - deb bekorga aytmaganlar. Xushmuomalalik insondagi eng yaxshi fazilatlardandir.

Imom al-Buxoriyning “Barcha ishda xushmuomalalik darkorligi haqida” hadisida shunday deyilgan: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamning jufti halollari - Oysha raziyallohu anho Urva ibn az-Zubayrga bunday deb aytib bergan ekanlar: “Bir toʻda yahudiylar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kirib: “As-somu alaykum!” (yaʼni, Sizga oʻlim!) - dedi. Men ularning gapini anglab: “Va alaykumu-s-somu va-l-laʼna!” (yaʼni, Sizga ham oʻlim va lanʼat!) - dedim. Janob Rasululloh: “Yo Oysha, shoshmat turgʻil! Alloh taolo barcha ishda xushmuomalalikni yoqtirgʻaydir”, - dedilar. Men: “Yo Rasululloh, ulamong nima



POLAND



POLAND

deganini eshitmay (anglamay) qoldingiz!” dedim. Janob Rasululloh :” Sizlarga ham dedim-ku, axir!” - dedilar “.

O`zbek xalqi qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelgan. Mehnatsevarlik va halol mehnat qilish har bir kishining axloqiy burchi deb qaraladi.

To`ylar, azalar, navro`z, hayit bayramlari singari marosimlar xalqning madaniy hayotida katta o`rin egallaydi. Ushbu marosimlar oila va jamiyat birdamligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O`zbek qadriyatlari jamiyatning barqarorligini saqlashda, milliy o`ziga xoslikni mustahkamlashda va yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish xalqning ma`naviy boyligini asrash demaktir. Shuningdek, yozuvchimizning o`zlari ham o`zbek farzandidir. Shu jumladan, o`zbek xalqiga xos bo`lgan milliy qadriyatlarni romanga ham singdirganlar.

Biz romanni mutolaa qilar ekanmiz, undagi voqea-hodisalar ko`z oldingizda namoyon bo`laveradi. Oyning o`n beshi yorug` , o`n beshi qorong`u deganlaridek, nihoyat ularning uyida ham uzoq kutilgan chaqaloq tug`ildi va o`zi mittigina bo`lsa-da, beradigan quvonchi bir olam quvonch olib keladi.

Yozuvchi asardagi bosh obrazdan tortib, to epizodik obrazlargacha turkona ism tanlangan. Masalan, “ Chaqaloqqa Sevinch deb ot qo`yishdi! Chunki sevinchli edi ular! Ming yillik g`ussa bor edi O`tkir akaning oilasida. Shu uchun sevinaylik, sevinchlarga yetaylik deb sevinchlanishdi. Qolaversa, bu oilada o`g`il-qizlarga turkona ot qo`yishardi. “ Shundog`am bir tomonimiz arabiyu boshqa tomonimiz forsiy otlarga to`lib ketgan. Hatto ular juda-juda ko`p. o`rtada muvozanatni saqlash uchun, otlarimiz aytilganda, qaysi millatga tegishli ekanimiz bilinib tursin. Yo`q, men boshqa millatlar ismlarini qo`yishga qarshi emasman. Faqat me`yor bo`lsin, deyman “.

Bu bilan yozuvchi bugungi kundagi farzandlarga ism qo`yishdagi og`riqli nuqtamizni aytmoqchi bo`lganlar. Chunki bugungi kundagi ota-onalarimiz farzandlariga “zamonaviy” , “yevropacha”, ya`ni o`zlari yoqtirgan kino aktyor yoki aktrissalar, futbolchilar, ashulachilarni ismlarini farzandlariga ism deb qo`yadilar. Masalan, Ronaldo, Messi, Esmeralda, Ishani kabilar. Mustaf, Ibrohim , Dovud, Omina, Oisha kabi ismlar ham ma`noli, ham islomiydir.

“Arablarda “Menga ismingni aytsang, men senga otangning kimligini aytaman” degan maqol bor. Farzandga munosib ism qo`yish farzandning otadagi haqlaridan biri hisoblanadi. Farzand kelajakda ismidan uyalmasin, ismi yomon



POLAND



POLAND

ma'noni bildirmasin. Eng yaxshi ismlar bandalik, hamd ma'nosini anglatuvchi ismlardir. Masalan, Abdulloh, Abdurahmon, Abdulhamid, Hamidulloh.

Farzandingizga ism qo'yganingizda u bir umr shu ism bilan chaqirilishini inobatga oling. Ba'zi ismlar bolaligida bilinmasligi mumkin, lekin yoshi katta bo'lganidan keyin g'alati tuyuladi. Masalan, Daler ismi. "Dalerjon" deb erkalatib bo'lmasa yoki ulg'ayganda, "Daler amaki" deyish ham g'alati, kattalarga xos ulug'vorlikni bildirmayapti.

Qiz bolaning ismi ham chiroyli, o'ziga xos bo'lgani yaxshi, shu bilan birga aytganda, eshitganda xijolatchilik bo'lmasin. Ma'nosi yaxshi bo'lsin. Masalan, "Gulbadan" ismi bir qarashda qiz bolaga xos, chiroyli, nozik tuyuladi, lekin aytganda xayol beixtiyor badaniga ketib qolaveradi. Otasi balog'atga yetib qolgan qizini shunday atab chaqirishini o'ylang. Juda noqulay bo'lsa kerak...

Undan ko'ra gulga bog'liq boshqa go'zal ismlar ham bor. Masalan, Gulrang-kamyob ismlardan ¹.

"Musulmon inson barcha narsada go'zallikni ko'zlashi kerak. Jumladan, bolalarga ism qo'yishda ham.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bolalarga ism qo'yishga alohida e'tibor berganlar. Bu o'ta muhim ishning Qiyomat kuniga ham bog'liq joyi borligini ham aytganlar.

Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Qiyomat kuni o'z ismlaringiz va otalaringizning ismi ila chaqirilursiz. Ismlaringizni go'zal qiling". Abu Dovud, Ibn Hibbon, Tobaroniy va Bayhaqiy rivoyat qilganlar.

Ismning chiroyli bo'lishi Qiyomat kuni ham kerak bo'lar ekan. Chunki barcha xaloyiq yig'ilgan joyda birovning ismi aytib chaqirilganda, xursand bo'lishi, aksincha, xijolat bo'lishi tabiiy. Ismi noqulayligidan xijolat bo'lib yurganlar oz emas, ismini o'zgartirganlar ham ko'p. ammo o'sha narsa avval boshda, bola yangi tug'ilgan paytda bir yo'la yaxshilab yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning musulmon farzandi ekanini dunyo-yu oxiratda ismi ham namoyon qilib turadi ².

Bularning barchasini yozuvchi inobatga olib, asardagi qahramonlarning ismini jismiga monand tarzda tanlangan. Masalan, Po'latda - po'latdek mustahkam iroda, kuch, sabr bor bo'lsa, Yog'duda - Po'latning o'zi aytganidek, "Yog'dusiz uning dunyosi zulmatga g'arq bo'lar edi". Chunki erining urushdan omon qaytishiga ham, sabrli, kuchli bo'lishiga ham hayitidagi "Yog'du"

¹ G'iyosiddin Yusuf. Tarbiya-chi ? Toshkent -2022. 9-10-betlar.

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Baxtiyor oila". "Hilol-nashr", Toshkent-2022. 284-bet.



POLAND



POLAND

sababchidir. Po'latning otasi - O'tkir aka "xotining gapini eshitar, ustiga-ustak "xo'p, xo'p" derdi-yu, deyarli hamma aytganlarining teskarisini qilar edi. Uning o'tkirligi ana shunda edi". U ham ismiga mos o'tkir, mard, jasur, gapini ustidan chiqadigan haqiqiy o'zbek otasidir. Sevinch ismiga to'xtalsak, "ismi o'zi bilan tug'ilgan qiz" deyish mumkin. Oychechak opa esa oy kabi chiroyli, aytgan gapini qildiradigan, chaqqon, sodda o'zbek ayolidir.

Biz asardagi Po'lat obrazida bir o'rinda o'ziga xos milliylikni ko'rishimiz mumkin. " Po'lat ko'zlarini bir og'ir yumib ochdi. Shuning o'zi quroldosh do'stlariga tutilgan motam, ko'rsatilgan ehtirom, o'qilgan duo edi ". Urush paytida vaziyatning yomonligi sabab hatto namoz ham o'qishning ham iloji bo'lmagan. Ammo Po'lat o'zbek milliy an'analarini unutmagan, doim otabobolari yodi bilan yashagan. Bu ham milliyligimizga, qadriyatlarimizga bo'lgan ehtiromdir. Ayniqsa, bularning yorqin dalili sifatida Oychechak opa va O'tkir aka, Po'lat va Yog'du obrazlarida yaqqol ko'ramiz.

- Topildimi?! Hoy yaxshilar, Sevinch qizim topildimi !... - Oychechak opaga mana shu ovoz kerka edi.

"- Topilganda qandoq, Po'latjon ! - eru-xotin vodiy tomondagi udumga ko'ra bir-birlariga to'ng'ich farzandining ismi bilan murojaat qilishar edi. Faqat Oychechak opa Po'latjon desa, O'tkir aka Po'latxon derdi. O'tkir aka va Oychechak opalarning to'ng'ich farzandi ham, o'rtanchasi ham, kenjasi ham bitta bo'lgani uchun ular bu ismga butun borliqlarini jo qilib aytishardi".

Oiladagi oila boshliqlari bo'lgan O'tkir aka va Oychechak opalarning bir-birlariga bo'lgan hurmatlari yonlaridagi o'g'li Po'lat va kelini Yog'duga o'rnakdir. Chunki "Qush uyasidagi ko'rganini qiladi" deyishgan. Shunday bo'ldi ham.

" Oradan uch-to'rt kun o'tib cholu-kampir oyoqqa turishdi, hojatga o'zlari boradigan, hatto tushkikdan so'ng birpasga tashqariga chiqib toza havoda aylanadigan bo'lishdi.

- Sevinchxon

- Labbay, Sevinchjon ! "

Bularning barchasini milliyligimizning yorqin ifodasi deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaviy qadriyatlar, ota-onaga hurmat, farzand mas'uliyati, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, halollik, diniy e'tiqod va vatanparvarlik kabi muhim an'analar tasvirlangan. Shu boisdan romandagi quyidagi misollarni keltirib o'taman : "Tutqunlar oqsoqolning nima sababdan qamoqqa tushganini bilgan kundan boshlab unga "Ota" deya murojaat qilishdi.



POLAND



POLAND

Umumiy tartib-intizomga bo'ysunishdan tashqari, unga izzat-ikrom ko'rsatishib, og'ir ishga yo'llamadilar “.

Bilamizki, o'zbek oilalarida ota-onaga bo'lgan hurmat va e'tibor eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi. Ota faqat oilaning boshlig'i emas, balki tarbiya beruvchi inson sifatida tasvirlangan. Bu bilan yozuvchi ota faqat o'z oilasida emas, balki jamiyatga ham hurmatga loyiq inson sifatida e'tirof etiladi.

“Sening sevgan qizing bor deding, to'y qilamiz! Rosti, mavridi! Sen menga ishonaqol! Bugunoq, hoziroq sovchilikka borib kelaman!”

Nikoh va oila muqaddas tushuncha sifatida ko'rsatilgan. O'zbek an'analari ota - onaning roziligi bilan to'y qilish va oilani mustahkam saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu misol orqali ota - onaning farzandi oilali bo'lishini, avlod davomiyligini muhim deb bilishini anglatadi.

“Onang bilan turmush qurganimizda juda baxtli edik! Hattoki, yer yuzidagi eng baxtli insonlar edik! Lekin nega, farzandsiz hayot juda og'ir, azobli bo'lib qoldi?!”

Bu misol Po'latning otalik orzusini, avlod davomiyligiga bo'lgan ehtiyojni aks ettiradi. O'zbek jamiyatida farzandli bo'lishi katta baxt hisoblanadi. Farzand ota - onaning hayotini davom ettiruvchi, oilaning mustahkamligi va o'ziga bo'lgan ishonchining timsolidir.

“Otalar kerakli joyda qattiq turmasa, dunyo ham o'z o'rnida turmaydi: buziladi - ketadi.”

Bu jumla shuni anglatadiki, jamiyatning mustahkamligi erkaklarning mehnatsevarligi va halolligiga bog'liq. O'zbek xalqining asosiy qadriyatlaridan biri mehnatsevarlikdir. Inson o'z halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini topishi va oilasini boqishi kerak.

“Ozodlikda sizdek otalar bo'lar ekan, qizlarimiz yomon yo'lga kirib ketmaydi, mabodo kirishsa, jazosi muqarrar ekanligini bilishadi. Rahmat sizga, ota!”

Bu jumla orqali o'zbek xalqida o'zidan katta kishilarga hurmat va e'tibor ko'rsatish, minnatdorchilik bildirish fazilati aks ettirilgan.

“Meni kechir, bilib - bilmay, tushunib - tushunmay qilgan isyonlarimni, gunohlarimni afvu et, Ollohim! Hammasini endi, umr poyonidagina anglab yetgandekman.”

Bu jumlada insonning gunohlari uchun tavba qilishi va oxiratni o'ylashi ifodalangan. Diniy qadriyatlar, duo va tavba qilish, qiyinchiliklarga sabr qilish milliy an'alarimizda muhim o'rin tutadi.



“Men uchun hayotning har bir lahza muhim, ayniqsa, uyga qaytayotganimni bilganimdan keyin! Axir vatanim, oilam oldida yana tirikligimni his qilaman!”

Bu jumlada qahramon vatan va oilasining hayotdagi eng katta boylik ekanligini tushunadi. O'zbek milliy qadriyatlarida uy va vatan muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Vatan va oila inson uchun eng qadrlil narsalar ekanligi romanda aks etgan.

Romandagi bir misol e'tiborimni tortdi :

- Nikoh o'qilganmi
- O'qilgan !

Tatar millatiga mansub shifokor, o'rta yoshli erkak kunlardan bir kun otaxonning hovlisiga kirib keldi. Shunda Po'lat otaning birinchi so'rovi shu bo'ldi. “ O'qilgan “. U shu birgina so'zni necha yil kutdi. Shunday bo'lishiga ishonmasa ham kutdi. Shunday mo'jiza ro'y berdi. Endi Po'lat ota bu yorug' olamdan izziz yo'qolib ketmaydi. Uning nasli davom etadi. Uning sharafigi avlodlarga so'zlab beradi. Avlodlar shunday suvda cho'kmas, o'tda yonmas odamni faxr bilan tilga olishadi.

O'zbek xalqi uchun nikoh masalasi hamma narsadan ustun. Bizning dinimizda “valadi zino” degan tushuncha bor. Bunday bolalarni “haromi” deb, or-nomus yuzasidan qabul qilishni xohlamaydilar. Bir tomondan, bolada nima gunoh desak, ikkinchi tomondan bu bola o'shaning pushti kamaridan deb, nafratlanadilar. Axir Po'lat ota ham shu sababli o'z qizining qotiliga aylanmadimi, shu sababli boshida nevarasini qabul qilishni xohlamay, jirkanmadimi? Otaning o'zi davomchisi bo'lmasligini o'ylab, ezilib -siqilib yurgan bir paytda davomchisi borligini bilgach, qabul qilgisi kelmadi. Xalqning orasida qanday bosh ko'tarib yurishini o'ylasa, odamlar uni qo'llari bilan bigiz qilib ko'rsatishi xayolidan o'tardi. Barchasi or-nomus yuzidan.

O'zbek oilalarida xuddi shunday valadi zino bo'lib qolib, keyinchalik oilaning kattalariga aytilib, oilasiga qabul qilinsa ham, hatto shu kelin o'lib ketsa ham, bu qilgan xatosi hech qachon hech kimning esidan chiqmaydi. O'zining o'g'lidan bo'lgan nevarasi bo'lsa ham, o'g'lini emas, butun umr kelinini aybdor sanab keladilar. Yuqorida aytganimdek, barchasi or-nomus yuzidan. “Ota” romanidagi keltirilgan bu misollar orqali o'zbek xalqining eng muhim qadriyatlari chuqur yoritilgan. O'zbek xalqining qadriyatlari xalqimizning tarixi va hayotiy falsafasining ajralmas qismi bo'lib, ular romanda real voqealar va ta'sirli tasvirlar orqali o'quvchiga yetkaziladi.





POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug`bek Hamdam."Ota" romani. Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. - 208 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. " Baxtiyor oila ". "Hilol-nashr", Toshkent-2022 , 284-bet.
3. G`iyosiddin Yusuf. Tarbiya-chi ? Toshkent -2022. 9-10-betlar.
4. www.ziyouz.com